



# TURKIY XALQLAR ADABIYOTI: ADABIY ALOQALAR, ADABIY TA'SIR VA TARJIMA

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-NAZARIY  
ANJUMAN MAQOLALAR TO'PLAMI

# TÜRK XALQLARININ ƏDƏBİYYATI: ƏDƏBİ ƏLAQƏ, ƏDƏBİ TƏSİR VƏ TƏRCÜMƏ

BEYNƏLXALQ ELMI-NƏZƏRI  
KONFRANS MƏQALƏLƏR TOPLUSU





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI,  
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI  
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI,  
OZARBOYJON MILLIY BILIMLAR AKADEMIYASI  
NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI,  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK  
TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI,  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI,  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI:  
ADABIY ALOQALAR, ADABIY  
TA‘SIR VA TARJIMA”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**MATERIALLARI**

**Toshkent-2022**

“Turkiy xalqlar adabiyoti: adabiy aloqalar, adabiy ta’sir va tarjima” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari to‘plami / – Qo‘qon-Boku-. – 2022. – ..... b.

Turkiy xalqlar jahon tamadduniga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan qardoshlardir. Ularning urf-odat va an’analari, adabiyoti, falsafasi, me’morchiligi, musiqasi, san’ati, madaniyati, tarixi, tili va dini bir. Turkiylarning bir-biriga yaqinlashtirgan umumiy va o‘xshash jihatlar ularning tili va adabiyoti hamda madaniyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Turkiy xalqlar adabiy aloqalari ko‘p asrlik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgani, jahon adabiyoti xazinasiga ko‘plab buyuk shoiru adiblarni yetishtirib bergani ham ma’lum. Turkiy xalqlar ijodkorlari mavjud an’analarni o‘z davri sharoitida davom ettiribgina qolmasdan, poetik mazmuni boyitishga ham xizmat qilganlar. Mazkur ijodkorlarning nafaqat o‘z adabiy muhitlaridagi balki jahon so‘z san’ati taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash, ilmiy va keng jamoatchilikka taqdim etish, yangi ilmiy tadqiqotlar uchun yo‘l ochish, adiblar ijodiyoti asosida kelajak avlodlarda ma’naviy meros va qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish zaruriyatidan Xalqaro anjuman o‘tkazildi va to‘plamda mazkur anjuman materiallari o‘rin olgan.

To‘plam № AL-322103020 raqamli “Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo‘yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida chop etildi.

#### **Tahrir hay’ati:**

Bahrom Abduhalimov, İsa Həbibbəyli, Nizomiddin Mahmudov, Dilnoza Xodjayeva, Shuhrat Sirojiddinov, Bahrom Abdullayev, Ramiz Əskər, Nurboy Jabborov, Jabbor Eshonqul, İsmayıl Məmmədli, Mahirə Quliyeva, Isajon Sulton, Aygün Bağırılı, Maqsud Asadov, Əlizadə Ələsgərli, Olimjon Davlatov, Gulnoz Sattorova, Dilshod G‘oyipov.

#### **Mas’ul muharrirlar:**

Almaz Ulvi, Zebo Qobilova

#### **Taqrizchilar:**

Dilmurod Quronov - Filologiya fanlari doktori, professor  
Yashar Qosim - Filologiya fanlari doktori

#### **Nashrga tayyorlovchilar:**

D.Asqarov, M.Imomaliyeva, N.Tursunova, H.Raimova, D.Abdullayeva

so'ng o'g'il she'r yozdi: "Ulug' zot!" deya.

Bir olim qararmish endi tarixga

Boshqacha ko'zlari bilan

Nechta ko'zi bor ekan, унинг...[2, 404]

Shu singari "uchliklarni" yaxlit ibora, aforizm shaklida ham qo'llash mumkin: "Duo qildilar: "Boshing toshdan bo'lsin", Qalbing tosh bo'lmasa bas"; "Shunday yashamoq joizki, so'ng aytmasinlar: o'ldi-yu ketdi iza"; "Axloqsizlik quvvat oladi, ajdodlarni mensimaslikdan"...

Bu kabi hikoyat va rivoyatlar tafsiri orqali nafaqat mavhum tushunchalarni bolaga anglatish ko'zda tutilgan, balki ularni yoshlikdanoq badiiy adabiyotning poetik detallari, ramz va tamsillari, mohiyatini teran idrok qilishga tayyorlash ham e'tiborga olingan.

Umuman, XXI asr o'zbek adabiyotining badiiy-estetik saviyasi, mavzu-mundariyasi, ifoda usullari yangilana borgani ushbu asarda ham yaqqol namoyon bo'lgan. Ma'rifiy qissalarga xalq pedagogikasi, qur'oniy suralar mazmuni singdirilgani davr adabiyotining yana bir xususiyati hisoblanadi. Shuningdek, bolalar va o'smirlar ruhiyati talqinida jahon adiblarining badiiy-estetik tajribalari ustuvor. Badiiy ijodda axloqiy-ma'rifiy qarashlarning yetakchiligi esa davr adabiyotining ehtiyojlaridan biriga aylangani yuqoridagi kabi asarlarning maydonga kelishiga turtki bo'layotir, desak yanglishmaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Malik T. Alvigo, bolalik. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 186-365.
2. Malik T. Mehmon tuyg'ular.– Toshkent: Hilol-nashr, 2016.–456 b.

## **TURKIY SHE'RIYATNING YIRIK VAKILI RAUF PARFI IJODI HAQIDAGI BAHSLAR XUSUSIDA**

**Shoira AXMEDOVA,**  
**BuxDU professori, filologiya fanlari doktori**  
**M.A.Xudoyqulova, f.f.f doktori (PhD)**  
**(O'zbekiston)**

**Annotatsiya.** O'zbek adabiyotining ulkan vakillaridan biri Rauf Parfi o'zining abadiylikka muhrlangan she'riyati bilan kitobxonlar qalbini zabt etgan shoir edi. Uning adabiyotga kirib kelishi ham o'ziga xos voqea sanalgan, shaxs erki, Vatan mustaqilligi va turk dunyosining birligini kuylagan shoir ijodi ilk qadamlaridan boshlab adabiy jamoatchilik va kitobxonlarning e'tiborida bo'ldi. Shoirning izlanishlariga har kim xil munosabat bildirdi, hatto uning she'rlarini

tushunmay, e'tiroz bildirganlar ham bo'ldi. Shu bilan birga o'ziga xos uslubga ega bo'lgan shoir she'riyati tanqidchilar, she'riyat muxlislari tomonidan yuqori bahosini olib keldi. Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodning o'rganilishi, shoir asarlari yuzasidan o'tkazilgan bahsu munozaralarga munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** she'riyat, shoir, adabiy tanqid, munaqqid, lirikada pafos, modernizm, bahs, tanqidiy munosabat

XX asr o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Rauf Parfi shoir, nosir, tarjimon sifatida kitobxonlarga o'nlab she'riy kitoblar, to'plamlar, tarjima asarlarini taqdim etgan, o'ziga xos maktab yaratgan ijodkordir. Uning asarlariga Asqad Muxtor, Shukrullo, Miraziz A'zam, Mirzo Kenjabek, Chori Avaz kabi shoirlar yuksak baho berganlar. O.Sharafiddinov, Ibrohim G'afurov, N.Rahimjonov, Ibrohim Haqqul, Botirxon Akram, Ulug'bek Hamdam, I.G'aniev, O.To'laboev kabi olimlar shoir ijodi haqida tadqiqotlar yaratdilar, maqolalar, esselar yozdilar. Masalan, O'zbekiston Qahramoni, yirik munaqqid O.Sharafiddinov shunday yozadi:” “Shunday shoirlar bo'ladiki, ularning yutug'i ham, kamchiligi ham kitobxon va mutaxassislar tomonidan bir maromda baholanib boradi. Shunday shoirlar ham bo'ladiki, ularning asarlari jamoatchilik o'rtasida ham, tanqidchilar orasida ham keskin bahslarga, munozara va tortishuvlarga sabab bo'ladi. Ana shunday shoirlardan biri Rauf Parfidir” [1, 153 ]. Haqiqatan ham XX asrning 60-70- yillarida adabiy tanqidchilik Rauf Parfi she'riyatini turlicha talqin qildiki, bu borada bahsu munozaralar kuchayib ketganligi ko'rinadi. Ammo shuncha bahsu munozaralardan keyin ham shoir o'z uslubiga, dunyoni o'zicha ko'rishi va ko'rsatishiga sodiq qolgan. Insonning ruhiy erkinligini kuylash Rauf Parfi she'riyatining mehvarini tashkil etadi. Shuning uchun shoir she'riyatida tuyg'ular suratini, kechinmalar manzarasini, kayfiyat, holatning timsollarini yaratish alohida o'rin tutadi. Bejizga shoirni tuyg'u-kechinmalar musavviri deb atashmagan. Aynan shu jihatni tushunmagan kitobxonlardan ba'zilar “Bu she'r emas, shoirning alahsirashlari, bizki, olimlar ularni tushunib etmasak, oddiy kitobxon qandoq tushunsin!” kabi fikrlarni aytishgan.

Shoir ijodining, she'rlarining yo'nalishi va o'ziga xosligi haqida, kamchiligi yutuqlari haqida jiddiy bahslar bo'lib o'tgan, ularda turli-tuman, hatto, ba'zan bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlar aytilgan, shunga qaramay, shoir ijodini jiddiy tanqid qiluvchilar ham uning o'ziga xos talant va iqtidor egasi ekanligini e'tirof etganlar. Bu bahslarda shoir va yozuvchi A.Muxtorning shoirni himoya qilib chiqqani, (*“Muhtaram Asqad Muxtor shoirning ijodi haqida gapirib, bu shoir his-tuyg'ularning suratini chiza biladi, degan edi. Bu orada Rauf birmuncha to'plamlarini she'rxonlarga taqdim etdi. Ayniqsa, uning ulug' Nozim Hikmatning mashhur “Inson manzaralari” asarini o'zbekchalashtirgani diqqatga sazovor bir*

*holdir*”.*A.Oripov*) yillar davomida uning mulohazalari haq ekanligini adabiy tanqid ham tan olgani va shoir ijodi haqidagi bahslarga munosabat bildirib, adabiyotshunos B.Nazarov shunday yozadi: “Rauf ijodi haqida fikr yurituvchi ayrim tanqidchilar uning she’rlarida ba’zan lahzalik tushkun kayfiyatlar kuylanishini, ba’zan zamondosh qiyofasining noto’g’ri talqin etilishini so’zlaydilar. Aslida shundaymi? Mutlaq yo’q deyish menimcha, noto’g’ri bo’lur edi. Chunki Raufning hazin ruhli she’rlari yo’q emas va oz ham emas. Lekin eng asosiysi, ularning mohiyatini to’g’ri aniqlay olishda, ulardan to’g’ri xulosa chiqara bilishda. Chunki Raufning aksar she’rlaridagi hazin kayfiyatlar hazinlikni madh etish uchun emas, aksincha, undan qutulish uchun, nurli holat, tuyg’u, kechinmalarni izlash, ularga intilish maqsadida va ularni botinan tarannum etish niyatida qalamga olinadi” [1, 154].

Rauf Parfi ijodi haqidagi bahslar keyingi yillarda - Mustaqillik yillarida ham davom etdi. Chunki hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish, haq so’zni kuylash o’zbek she’riyati taraqqiyotining barcha davrlari uchun bosh tamoyil bo’lib kelgan. Lekin maqsadga erishish yo’llari, usullari juda turli-tuman va ko’p. Masalan, majoziy obrazlilik haqiqatni aytishning, voqelikni, hayotni realistik idrok etishning shakllaridan biri bo’lib, R.Parfi ijodining asosiy yo’nalishini tashkil etadi. Bu haqda adabiyotshunos olim N.Rahimjonov shunday yozadi: “O’tgan asrning 80-yillari o’zbek tanqidchiligida badiiy tafakkurning ushbu ko’rinishi mohiyatini tushunmaslikdanmi yoki tushunishni istamaganlikdanmi, “She’ringizni tushuntirib bersangiz”, “Shoir nima demoqchi, she’r nima deyapti” qabilidagi maqolalar yuzaga keldi. Ularda Rauf Parfi she’rlaridagi majoziy obrazlarni, ramzlarni G’arbga taqlidchilikda, o’ta murakkablik va mavhumlikda ayblash rasm bo’ldi. Timsolli obrazlar sarbastdagi izlanishlarida yorqinroq tajassum topgani boisidanmi, ularni G’arb she’riyatiga taqlidda ayblashdi. Vaholanki, she’rning bu shakli avvalgi ming yillikda muysafid Sharqning qadimiy bitiklaridayoq mavjud ekan. Ushbu hodisa, ayrim tanqidchilar aytgandek, G’arb va Lotin Amerikasi adabiyotiga taqlidan emas, aksincha, estetik ta’sir samarasi o’laroq yuzaga keldi. Shu boisdan ham shoir: o’zimizning qadimiy yozuvlarimizda o’zimizni qaytadan topdik, -deydi” [4, 98].

N.Rahimjonovning “Badiiy did va estetik saviya” bahs-maqolasi matbuotdagi bahslarga, aniqrog’i, havaskor qalamkash M.Yo’ldoshevning “Shoir nima demoqchi, she’r nima deyapti?” maqolasiga javoban yozilgan. “Kuni kecha “She’ringizni tushuntirib bersangiz” degan savol paydo bo’lgan edi. “Shoir nima demoqchi, she’r nima deyapti” deya savolga tutilayapti” deb yozar ekan, munaqqid M.Yo’ldoshevning fikri aniq maqsadga yo’naltirilmaganligi, she’rning ma’nosini uqmagan o’quvchi uni yozgan shoirni ham anglashi qiyinligini ta’kidlaydi. Haqli ravishda munaqqid bugun Rauf Parfi she’rlariga shu tariqa savollarni qo’yayotgan

o‘quvchi Alisher Navoiy asarlarini qo‘liga olsa nima der ekan degan muammoli masalalarni o‘rtaga tashlaydi va bunday savollar bo‘lishining tub sabablarini izlashga kirishadi. “Hamma ayb she‘riyat haqidagi tasavvur va tushunchalarning, estetik mezonlarning jo‘nlashib ketganida. Badiiyat mezonlarining nihoyatda siyqalashtirib yuborilganida...”

Sho‘ro mafkurasining she‘riyatni xalqqa yaqinlashtirish, ommaviylashtirish uchun olib borgan siyosati salbiy oqibatlarga olib keldi. Uning saviyasi tushirib yuborildi”[4, 109]. Klassik adabiyot, Alisher Navoiy asarlarini tahlil qilib, olim eng muhimi, kitobxonning didini mumtoz she‘riyatimiz saviyasiga ko‘tarish kerakligini uqtiradi. Munaqqid she‘rxon kitobxonning shoir she‘riyatiga qo‘ygan da‘volarining asossiz ekanligini chuqur tahlillar orqali yoritadi. Ayniqsa, “Ona tilim” she‘ri misolida shoirning so‘z tanlashi va “ularga zargarona sayqal berishi chinakam buyuk bir mehnat, betimsol san‘at namunasi” ekanligini ochib beradi.

U olis quyoshdir, kuyinib yozar,

Olis esdalikdir, bo‘lmaydi ado.

U qachon tug‘ilgan, bilmas payg‘ambar,

U qachon so‘nadi, bilmaydi xudo.

“Ona tilining nuroniy tarixi haqida bundan ham dardchil, bundan ham obrazli so‘zlash mumkinmi?”

Shoir “Ona tilim” she‘rining fikriy qurilishini tubdan o‘zgartirib, uni uchta sonetga aylantirgan. Aytish zarurki, har bir sonet badiiy tafakkur ko‘lamining miqyoslari, hissiy iste‘dodi va ma‘no mustaqilligiga ko‘ra tamomila yangi, original she‘rlar”[5, 108].

Javob tarzida yozilgan bahs-maqola, eng avvalo, o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos voqea sanalgan shoir ijodini turli, asossiz xurujlardan himoya qilishi, ikkinchidan, ijodkor she‘rlarining o‘ziga xos talqinlarga boyligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

Ko‘rinadiki, Rauf Parfi O‘zturk ijodi, she‘riyati haqidagi bahslar shoirning o‘zigva xos uslubini yanada yorqinroq ko‘rsatishga xizmat qiladi. “Haqiqat bahslarda tug‘iladi” deganlaridek, shoir ijodi chuqur mazmun-mohiyatga egaligi, originalligi bahslarda yanada batafsil ochib berilganligi ko‘rinadi. O‘zbek she‘riyatining yirik vakillaridan biri Rauf Parfi ijodini o‘rganish, turli qirralarini yoritish bugungi kunda ham davom etmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nazarov B. Hayotiylik bezavol-mezon. Toshkent. “Yosh gvardiya”. 1985. – B.153.
2. Rauf Parfi. Sabr daraxti. Toshkent. 1986.
3. Rauf Parfi. Sukunat. Toshkent. 1991.
4. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati. Toshkent. Fan, 2007.

5. Rahimjonov N. Badiiy did va estetik saviya. Kitobda: Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent. Fan, 2007.

## SHODMONQUL SALOM IJODIDA FALSAFIYLIK

**Xurshida XAMRAKULOVA,**  
Toshkent amaliy fanlar universiteti  
professori v.b., filologiya fanlari doktori  
(O'zbekiston)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shoir Shodmonqul Salomning "She'r sayyorasi" kitobiga kirgan she'rlari tahlilga tortiladi. Shoirning yuzdan ortiq she'rlarida kuztilgan falsafiylik maqola uchun asos bo'lgan. Unda shoir falsafasi, hayotiy hikmatlari, ona haqidagi cho'ng iztirobli satrlari, inson va odamzod haqidagi mushohadalari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Shodmonqul Salom, "She'r sayyorasi" she'riyat, ilhom, falsafiylik, she'r hikmati, ona obrazi, inson, odamzot, lirik kechinma, lirik qahramon.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы стихи поэта Шодмонкула Салама, вошедшие в его сборник "Планета поэзии". В основу статьи легла философия поэта в более чем ста стихотворениях. Исследователем проанализированы философия поэта, жизненные умозаключения, проникновенные строки о матери, его размышления о человеке и человечестве.

**Ключевые слова:** Шадманкул Салам, сборник "Планета поэзии", вдохновение, философия, мудрость поэзии, образ матери, человек, человечество, лирическое переживание, лирический герой.

**Annotation:** In this article, the poems of the poet Shodmonqul Salom included in the book "Poetry Planet" are analyzed. The basis for the article was the philosophy expected in more than a hundred poems of the poet. It analyzes the poet's philosophy, life wisdom, painful lines about his mother, and his observations about man and mankind.

**Key words:** "Poetry Planet" poetry, inspiration, philosophy, poetic wisdom, image of mother, human, humanity, lyrical experience, lyrical hero.

Bir yigitning voyaga yetishi uchun qirq yil kerak bo'ladi, deyishadi. O'zbekning bir yigiti ham qirq yilda to'kis shoir bo'libdi. Buni Shodmonqul Salom she'riyati misolida aytish mumkin. Shodmonqul Salom she'riyati ruhiyat



Ramiz Asqar. Özbək ədəbiyyatı Ramiz Əskərin tərcüməsində Azərbaycan dilində.....	108
Dilmurod Quronov. Fuzuliy Cho‘lpon nigohida.....	111
Nurboy Jabborov. Ahmad Yassaviy va Yunus Emro hikmatlarida adabiy ta’sir va izdoshlik.....	118
Nadir Məmmədli. Azərbaycanda Özbək dilinə həsr olunmuş tədqiqatlar və perspektivlər.....	125
İsmayıl Məmmədli. “Azərbaycanca-Özbəkçə Özbəkçə-Azərbaycanca lüğət” türkologiyada hadisədir.....	130
Badirxan Ahmadli. The poetic world of Sirajaddin Said.....	134
Akbar Sabirdinov. Oybek she’riyatida Fuzuliy an’analari.....	141
Adhambek Alimbekov. O’zbekistonda turk adabiyotini o’rganish tarixidan.....	145
Salidə Şərifova. Rəsul Rza: keçmişdən müasirliyə, qulluqdan vətəndaşlığa, Şimaldan Cənuba, millilikdən ümumbəşərliyə körpu.....	151
Habibullo Jo‘rayev. Javoxirbek Sayidolimov. Din va dunyo: g‘oya va badiiyat..	160
Dilshod G‘ayipov. Fuzuliy va Ogahiy she’riyatıdagı ijodiy ta’sir hamda o‘zıga xoslik masalaları bo‘yicha ba’zi mulohazalar.....	164
Seyfəddin Altayli. Ahmet Yesevî’den İzzeddin Hasanoğlu ve Hacı Bektaş Veli’ye.....	169
Gulnoz Sattorova. O‘zbek va jahon hikoyachiligi: adabiy ta’sir va o‘zıga xoslik.....	180
Barno Abdurahmonova. Qadimgi turkiy adabiyot va Zavqiy.....	185
Bekposhsha Rahimova. Badiiy adabiyotda an’ana va vorisiylik hodisasi.....	190
Farida Karimova. Fuzuliy forsiy devoni debochasida navoiyona uslub qirralari..	194
Islombek Mannopov. Xoja Ahmad Yassaviy va turkiy xalqlar adabiyoti.....	200
Nəzakət İsmayılova. Həbib Sədulla.....	206
Salomat Matkarimova. Alisher Navoiy va Xorazm shoirlari ijodida «so‘z».....	211
Zuhra Mamadaliyeva. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy pandnomalarida bosh qahramon masalasi (“Mahzan ul-asror” va “Hayrat ul-abror” dostonlari misolida).....	216
Manzura Pirnazarova. Turkiy xalqlarning mushtarak shoiri.....	220
Jasurbek Mahmudov. Pahlavon Mahmud va Nizomiy Ganjaviy.....	225
Aytən Qurbanova. Başqırdistan ədəbiyyatında repressiya dalğası.....	231
Aygün Bağırılı. Sovet dövrü Azərbaycan yazarlarının epistolyar əsərlərində Türkiyə.....	237
Mehman Həsənli. orxan pamukun “bəyaz qala” romanında şərq-qərb dilemması.....	247
Botir Jafarov. XIV asr turkiy lug’atchilik an’analaridagi mushtaraklik.....	251

Iqbol Mirzo. Turkiylarning oltin kitobi.....	256
Sobira Jo'raeva. G'azalda ma'no va mahorat masalalari.....	261
Töhfhə Talibova. Səməd Vurğun və Musa Cəlil.....	266
Turan Teymurov. Yunus Əmrə və Şəkərimin “Leyli və Məcnun” əsərində eşq...271	
Namiyə Xəlilova. Nizami Gəncəvi irsinin bibliografik aspektdən təqdimatı.....	277
Kishin Xajiboyev. “Asrga tatigulik kun” romonida davr va inson muammosi....	284
X.Xolmurodov. Sharq adabiyotida Shirin obrazi an'anasi va uning Alisher Navoiy she'riyatidagi takomili.....	291
Малика Адыгезалова. Гусейн Джавид и узбекская литература.....	298
Iroda Ishonxanova. Alisher Navoiy asarlariga Nizomiy ijodining ta'siri.....	302
Oybek Barziyev. Didaktik yo'nalishda bitilgan lirik asarlarning qiyosiy tadqiqi (Abdulla Avloniy va Aliakbar Sobir she'riyati misolida).....	307
Sənubər Səmədova. Ədəbiyyatda milli özünüdərək ideyalarının ictimai-tarixi zəmini və bədii təşəkkülü.....	313
Темирова Нуржамал. Кыргыз жана өзбек элинин дидактикалык чыгармалары жана алардагы таалим-тарбия маселеси.....	320

## **TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA OZARBAYJON ADABIYOTINING TUTGAN O'RNİ.**

Ülkər Nəbiyeva. Torpaq - mifik sakrallığın rəmzidir.....	324
Азизова Фарида «Хадигату-с-суада» Мухаммеда Физули в новой исследовательской парадигме.....	331
Əlizadə Əsgərli. Хялил Рза Улутцркүн özbək ədəbiyyatından çevirmələrinə dair.....	339
Mahirə Quliyeva. Klassik söz sənəti və nəzəri əsasları.....	345
Shahnoza Qahhorova. Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonida fano talqini...350	
Sevinc Ağayeva. Suli Fəqih və Durbəkin yaradıcılığında epik ənənələr.....	356
Nasiba Xaydarova. O'zbekistonning rusiyzabon nasridagi individual-mualliflik konseptlar va imagogik dominantalarning istiqbollari va modifikatsiyasi (V.G.Yan ijod materialı asosida).....	361
Əflatun Baxşəliyev. Nazim Hikmət və Azərbaycan ədəbi mühiti.....	367
Vazufa Kudiyeva. A Li Bey Hüseyinzade mirasına ilişkin belge akışının geliştirilmesi ve bilgi kaynaklarına yansımaları.....	374
Айляль Гейдарова. Символика спектра красок в цветовой гамме чувств как отражение психологизма в произведении.....	383

## **ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI**

Almaz Ülvi Binnətova. “Ötən günlər”i nə üçün yenidən xatırladıq?!.....	395
Ulug'bek Hamdam. O'ljas Sulaymonov ijodiga chizgilar.....	398